

**Farg‘ona Davlat Universiteti ingliz
filologiyasi kafedra mudiri
f.f.f.dotsent Mirzayeva Dilshoda
Ikromjonovna taqrizi ostida**

**Aziza Sayfidinova
Farg‘ona Davlat Universiteti ingliz
filologiyasi o‘qituvchisi
say838670@gmail.com +998947030010**

TILSHUNOSLIKDA FRAZEMA VA FRAZELOGIK BIRLIKLARNI O‘RGANISH

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib avvalo ushbu frazeologizmlarni tadqiq qilish muammolari va ularni etimologiyasi hamda orfografiyasiga batafsil to‘xtalib o‘tadi hamda ushbu turg‘un birikmalarni yagona ma‘nolari haqoda ma‘lumot beradi. Shuningdek frazeologizmlarning shakillanish jarayoni so‘zlarning o‘zaro leksik birikuvidan hosil bo‘lishi, so‘z birikmalarining yasalishi uni tashkil etuvchi a‘zolarining hozirgi kundagi leksik ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan ma‘lum semantic tarkibiy qismlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Frazeologizm, frazeologiya, frazema turg'un birikma, orfografiya, etimologiya, erkin so'z.

АННОТАЦИЯ: Данная статья посвящена теме фразеологизмов в современном языкознании, прежде всего, она фокусируется на проблемах исследования этих фразеологизмов, их этимологии и орфографии, а также дает информацию об уникальных значениях этих устойчивых сочетаний. Также анализируется процесс образования фразеологизмов, образование лексических сочетаний слов, образование словосочетаний, отдельных смысловых компонентов, не зависящих от текущих лексических значений составляющих его членов.

Ключевые слова: Фразеологизм, фразеология, фразеологический состав, орфография, этимология, свободное слово.

ANNOTATION: This article is devoted to the topic of phraseological units in modern linguistics, and first of all, it focuses on the problems of researching these phraseologisms, their etymology and orthography, and provides information about the unique meanings of these fixed combinations. Also, the formation process of phraseologisms, the formation of lexical combinations of words, the formation of word combinations, certain semantic components that do not depend on the current lexical meanings of its constituent members are analyzed.

Key words: Phraseologism, phraseology, phraseological compound, orthography, etymology, free word.

Tilning frazeologik fondi milliy madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda ma‘lum bir xalqning o‘ziga xosligi eng yorqin namoyon bo‘ladi, chunki frazeologiya ko‘proq fikrlash va dunyo tasvirini aks ettiradi. Tilning lug‘at turkumiga nafaqat alohida so‘zlar, balki barqaror so‘z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo‘lgan turg‘un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning

frazeologizmlarning ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi frazeologiya (grekcha phrases – “ibora”, logos – “so‘z” ma'nosida) deyiladi¹.

Tilshunos olimlar esa frazema termini umumiy jihatdan lingvistik birliklarning muhim xususiyati iboraviylik va asosning kamligi ekanligini ko'rsatadi. Uriel Vaynrayx iborani “ma'nosi uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlardan kelib chiqmaydigan murakkab so‘z birikmasi” deya ta'riflaydi. U idiomani frazeologik birliklarning bir ko'rinishi degan haqiqatga yaqin taxmini ilgari surdi. Rey Jekkendorf va Charlz Filmo iboraning to'liqroq va xolisroq quyidagi izohini taklif etishdi: “Ibora yoki konstruksiya bu tildagi barcha so'zlardan xabardor bo'lish mobaynida so'zlovchi bilmay qolgan narsalardir” degan go'yani ilgari surgan.

Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologizmga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'limi sifatida qaraladi. Frazeologizmlar ikki va undan oriq so'zlarning turg'un birikmasidir. Masalan kapalagi uchmoq, qo'li gul, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq kabi.

Frazeologizmlarning tarkibida ko'p so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional –ekspressiv ma'noni ifodalaydi². Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi. Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida xosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlaro'zaro birikib yaxlitholda qo'llanishi natijasida singib ketadi.

Frazeologizmlar turli tillarda o'sha xalqning ba'zi urf – odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay mazmuni to'g'ri keluvchi iboralardan foydalaniladi³.

Frazeologik birikmalarning asosiy manbasi – bu ularning tarkibidagi o'zaro birikkan so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishidir. Ko'pgina ingliz tilidagi frazeologizmlar badiiy asarlardan, turli adabiyot manbalaridan olingan. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning soniga ko'ra adabiy manbalardan keyin birinchi o'rinni Bibliya, ikkinchi o'rinni esa Shekspir ijodiyotidan olingan frazeologizmlar egallaydi. Yozuvchilarning asarlari, bolalar she'riyati, ertaklar, karikaturalar⁴ ham frazeologizmlarning kelib chiqish manbasi hisoblanadi.

Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning aksariyati mualliflari noma'lum, qadimgi ingliz tilining so'z tartibida tuzilgan so'z birikmalari hisoblanadi. Bunday keng tarqalgan

¹Petrova, M. (2010). Ingliz frazeologik birliklarining etimologiyasi: keng qamrovli tadqiqot. Oksford Universiteti Matbuoti.

² Ivanov, A. (2012). Rus frazeologik birliklarining etimologik tahlili. Moskva Davlat Universiteti Matbuoti.

³ Smit, J. (2014). Frazeologik birliklarning kelib chiqish varivojlanishi: etimologik yondashuv. Kembrij Olimlari Nashriyoti.

⁴ Karikaturalar (italiyancha caricare - "bo'rtirish") degan ma'noni anglatadi.

frazeologik birikmalar xalq ijodi namunalari. Masalan: *bite off more than one can chew* – nonni katta tishlamoq, kuchi yetmaydigan ishga chiranmoq, zo'riqmoq, behuda urinmoq, o'z kuchini hisobga olmaslik = qattiq bodom tish sindirar, ortiqcha chiranish bel chiqarar; O'zbek tilida ham shu iboraga ekvivalent bo'la oladigan ibora mavjid ya'ni:

Nonni katta tishlasang ham gapni katta gapirma.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, gramatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o'zaro birikuvi va gapga ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanadi.

Frazeologiyaniing hajmini keng doirada va tor doirada tushunish mavjud. Keng tushunishda frazeologiya doirasiga so'zlarning turg'un birlashmalaridan tashqari turli hil frazeologik birliklar mansub deb qaraladi. Tor doiradagi tushunchada esa uni ma'nosi bir so'zga teng ekanligi tushuniladi.

Frazeologiya deb so'zlarning semantik bog'lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini –so'zlarning turg'un birlashganlarini - til birligi deb baholash mumkin⁵.

Frazeologik birlik deb so'zlarning barcha tur turg'un birlashmalarini emas, balki, shulardan bir qismini tan oladilar. Frazeologik birlik bo'lish uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no ko'chma ma'no anglatishi shart. Frazeologik birliklar iboradan yaxlitligicha anglashilidigan ma'no uchun tarkibidagi so'z –komponentlarga xos leksik m'anolarning yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraning ma'nosi umumlashma ma'no, maxraj ma'no sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklar birdan ziyod so'zdan tashkil topsa ham, yagona umumiy tushunchani ifodalayoladigan ulkan ikki tomonlama leksik birliklardir⁶. Frazeologik birliklar leksik ma'nolari bu ularning tarkibiy qismlarining umumiy leksik ma'nolaridir. („Small potatoes“ – something insignificant or unimportant.).

Frazeologik birliklar so'zlarga ekvivalent bo'lib kelishiga ko'ra maxsus so'z birikmalari sifatida farqlanishadi; ular aniq bir so'z turkumidagi so'zlarga teng bo'lishadi. Tarkibiy qismlarining qaysi so'z turkumiga oidligidan qat'i nazar frazeologik birliklar to'lig'icha faqat bir so'z turkumiga tegishli bo'ladi. “long day” erkin so'z birikmasi bilan “in the long run” frazeologik birligini taqqoslaganimizda, erkin birikmadagi “day” ot va “long” sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, ular alohida olinganda ham ushbu ma'nolarida qoladilar.

Frazeologizmlarning shakillanish jarayoni so'zlarning o'zaro leksik birikuvidan hosil bo'ladi. So'z birikmalarining yasalishi uni tashkil etuvchi a'zolarining hozirgi kundagi leksik ma'nolariga bog'liq bo'lmagan ma'lum semantik tarkibiy qismning tashuvchisi

⁵Garsiya, L. (2016). Ispanfrazeologikbirliklariningetimologiyasi: tarixiyvaqiyosiytahlil. Universidad De Salamanca matbuot.

⁶Chjan, H. (2018). Xitoyfrazeologikbirliklarinietimologiko'rganish. Pekin tilvaMadaniyatuniversitetimatbuoti.

hisoblanadi⁷. Biz shunga o'xshash birikmalarning qurilish ma'nosi bilan uni tashkil etuvchilarining leksik ma'nosini farqlashimiz lozim.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki tilning so'z boyligi nafaqat so'zlar , balki frazeologik birikmalar yordamida boyib boradi. Frazologik birliklar nutq jarayonida yaratib bo'lmaydigan , balki tilda tayyor birlik sifatida bo'ladigan so'z birikmalaridir. Ular maxsus lug'atlarda yig'iladi. So'zlarga o'xshab iboralar ham bitta mazmuni berib, gapning bir bo'lagi bo'lib keladi.

REFERENCES

1. THE IMPORTANCE OF THE DIDACTIC SYSTEM IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHYLOLOGICAL DIRECTION Makhsetova Zuhra Turebaevna Almalyk branch of Tashkent state technical university named after Islam Karimov, English language teacher EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 1 Issue 9, December 2021
2. O'ZBEK VA INGLIZ BADIY ASARLARIDA G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (Ernest Xeminguey va Abdulla Qahhor ijodida) M.I.Dexqonova, I. Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali "Ozbek tili va adabiyoti" kafedrasida assistenti ANDRYANOVSKIYE PEDAHOGICHESKIE CHTENIYA 11 fevral 2022 . PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION Makhsetova Z.T. master's student Chirchik Pedagogical Institute Tashkent region "Экономика и социум" №7(74) 2020
4. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С КОМПОНЕНТОМ ЗООНИМОМ В КИТАЙСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ 3. Т. Махсетова ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES V
5. Akobirov S. Lug'at – so'z hazinasi. T., 1963.
6. Alexander Pope. Epistle to Dr. Arbuthnot. Ldn., 1860.
7. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O'zbek tili va adabiyoti.
8. Dictionary of English Language and culture. (with color illustrations) (Longman Group
9. Esenboyev R. Tarjima san'ati. 1,2,3,4 kitoblar. Toshkent. 1986.
10. Edmund Spenser. The Faerie Queen. Moscow, 1979
11. Little W. The Shorter Oxford Dictionary, Clementon. Press 1933.
12. Lord Chesterfield. Letters to his son. Clementon. Press 1949.

⁷Kovalska, A. (2019). Polshafrazeologik birliklarining etimologiyasi va semantikasi: diaxronik istiqbol. Jagiellonian Universiteti Matbuoti.